

O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

*Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi
o'qituvchisi Nurova G
"Iqtisodiyot va Turizm"
fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi
Odilova Aziza Umid qizi*

Annotatsiya. Bugungi kunda davlatimzda banklarning o'rni juda katta. Shu bilan birga xalqimzga sezilarli tasirini va yordamini kursatib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Bank tizimi, aktivlar, kapital, depazit, sektor, moliyaviy ehtiyoj, moliya bozori, kichik biznes, kredit, tijorat banki, kapitallashuv, ustav, barqaror.

Mamlakatimizda bank tizimining uzluksiz rivojlanishi bozor munosabatlari sharoitidagi ob'ektiv zaruriyat bo'lib, bu o'z navbatida tijorat banklar faoyatini uzluksiz nazorat qilishni va ularni samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlar bazasining yaratilishining uslubiy asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ham ushbu sohani rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston bank tizimini o'z sifatini yangi bosqichini boshidan kechirmoqda. Bu makroiqtisodiy vaziyatdagi jiddiy o'zgarishlar, umumiqtisodiy vazifalarni hal etishda banklarning faoliyati va ta'sirining o'sishi bilan bog'liq. O'zbekistonda bank tizimj mustaqil davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimida 33 ta bank, jumladan, 12 ta davlat ulushiga ega, shuningdek, 15 ta xususiy va 5 ta xorijiy banklar mavjud. 1 noyabr holatiga ko'ra, banklar aktivlari 39 mlrd dollarni (419 trln so'm) tashkil etib, ularning 82 foizi davlat banklariga tegishli. Banklarning majburiyatları 33 mlrd dollarga (352,6 trln so'm) yetdi, shundan 40 foizini depozitlar tashkil etadi. Banklarning umumiyligi kapitali 6,2 mlrd dollar (66 trln so'm) darajasida bo'lib, shundan 81 foizi davlat banklari kapitaliga to'g'ri keladi.

Ikki yil ichida O'zbekistonda uchta raqamli bank (TBC Bank, Anor Bank, Apelsin Bank) va masofaviy moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan 32 ta fintex-kompaniyasi tashkil etildi.

Tadbirkorlar o‘z to‘lovlarining 85 foizini masofadan turib amalga oshiradilar (2017 yildan beri 7 barobarga o‘sgan). Sakkizta bank raqamli identifikatsiya mexanizmidan (Face ID) foydalanmoqda, qolganlari esa testlarni yakunlamoqda.

2025 yilda O‘zbekiston bank tizimidagi xususiy sektor ulushini hozirgi 18 foizdan 60 foizga oshirish rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston tijorat banklari, avvalo, ixtisoslashgan kredit institutlari si-fatida ko‘zga ko‘rina boshladи. Bu, bir tomondan xo‘jaliklarning vaqtincha bo‘sh mablag’larini jalg etishi, boshqa tomondan esa jalg etilgan mablag’lar hisobidan korxonalar, xususiy tadbirkorlar va aholining moliyaviy

ehtiyojlarini qondirishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Bank tizimi oldiga uning rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi strategik vazifalar qo‘yildi. Vazifalarning birinchisi banklar moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat bo‘lsa, ikkinchisi — O‘zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorida faolligini ta‘minlashdir.

Prezidentimiz tomonidan taqdim etilgan demokratik islohotlatni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida takidlaganidek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning surati va mantiqiy talablaridan kelib chiqgan holda, erkin bozor iqtisodiyotlari munosabatlarini yanada rivojlantiriwga xizmat qiladigan va bir qator qonunlar qabul qilishni hayotning o‘zi taqazo etmoqda. Xususiy mulkni iqtisodiyotga safarbar etish va uni himoya qilish, bank tizimi infrastrukturasini takomillashtirish, moliya bozori va kichik biznesni rivojlantirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarni takomillashtirishga oid bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritib borilmoqda.

2023-yil davomida o‘tkazilgan Senteo tadqiqotida Customer Experience

Index (CEI) indeksida yetakchi o‘rnlarni quyidagilar egalladi:

- “Uzpromstroybank”;
- InfinBANK;
- "Uznatsbank";
- Hamkorbank;
- Asia Alliance Bank.

Kuchli o‘ntalikka “Kapitalbank”, Asakabank, Tenge Bank, Ipak Yo‘li Banki, Orient Finans ham kirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019 yilgi Statistik byulleteniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mamlakat iqtisodiy faoliyatida bank tizimining o‘rni yaqqol nomoyon bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz.

2019 yilning 1 yanvar holatiga bank aktivlari hajmi jami YaIMning 52,7 foizinin tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020 yilning 1 yanvar holatiga kelib 53,3 foizni yetgan.

2020 yilning 1 yanvar holatiga kredit qo'yilmalari miqdori 211 trln 580 mlrd. so'mni tashkil qilib, YaIMga nisbatan 41,3 foizga teng bo'lgan

2020 yilning 1 yanvar holatiga O'zbekistondagi mavjud tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga qo'yilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i 211 trln 581 mlrd so'mni tashkil qilgan. Ushbu kredit qo'yilmalarining 35,7 foiz yoki 75,6 trln so'mi sanoat tarmog'iga yo'naltirilgan.

Hozirda mamlakatimizda mavjud barcha 30 ta tijorat banklarining barchasi universal faoliyat olib borishmoqda . Barcha tijorat banklarining faoliyati yuqori darajada rivojlantirilmoqda va banklarning barqarorligi ta'minlanmoqda.

Islohotlar samarasini o'laroq so'ngi yillarda banklarimiz lahzali likvidlilik me'yori 2020 yil 1 mart holatiga 49,8% ni tashkil etmoqda, bu esa minimal talabdan qariyib 5 baravar ko'pdir. So'nggi yillarda mamlakatimizda kredit tashkilotlari soni kengayib bormoqda. 2018 yilda kredit tashkilotlari soni 104 tani

tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda ularning soni 121 taga va 2020 yilda 147 taga yetgan. Bu ijobjiy holatlardan bo'lib, mamlakatimizda bank xizmatlari ko'lami va sifat darajasi oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari I darajali kapitali yuqori sur'atlarda o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lgan.Xususan, tijorat banklari I darajali kapitali 2020 yil 1 martda 2020 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 5,6 foizga oshib, 47,9 trln. so'mga yetdi. 2020 yil 1 yanvarda esa 43,7 trln.so'mni tashkil qildi.

Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar diqqatga sazovordir. Agar raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, songgi 10 yil ichida bank tizimining umumiy kapitali 6 barobardan ziyodroqqa osdi. 2022 yilning ozida tijorat banklari umumiy kapitali 32 foizga kopaydi.Tijorat banklari ustav kapitalining o'z mablag'lariga nisbati oxirgi yilda o'sish tendensiyani ko'rsatmoqda. Lekin 2018 yilda, aksincha, sezilarli darajada pasaygan bo'lsa-da, 2019 yilda bu ko'rsatkich 82,06 foizgacha oshgan. Bunga, asosan, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli qaror ijrosi sabab bo'ldi. Unga ko'ra, barcha tijorat banklarining ustav kapitali 2019 yil 1 yanvargacha 100 mlrd. So'mga oshirilishi belgilandi. Shu asnoda 2021 yildan 2023 yilgacha ustav kapitalining banklarning o'z mablag'lariga nisbati oshib borgan. Ustav kapitalining jami kapital hajmida yuqori salmojni egallashi ijobjiy holat hisoblanadi. Chunki ustav kapitali yuqori barqarorlik darajasiga ega bo'lgan

moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida bank tizimini takomillashtirish banklarning iqtisodiyotdagi roli nafaqat banklarning o'ziga, balki milliy iqtisodiyotning rivoji va raqobatbardoshligiga bevosita bog'liq. O'z navbatida, iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi mamlakatda barqaror va samarali bank tizimining tashkil etilganligi bilan bevosita bog'liqdir. Bir so'z bilan aytganda, banklar va milliy iqtisodiyot bir – biridan ayri holda rivojlanishining imkoniyati mavjud emas. Ular biri – birini to'ldirgan holda, bir – biriga o'zaro hamoxang tarzda rivojlanib va takomillashib boradigan iqtisodiy – moliyaviy sub'ektlar hisoblanadi. Mustaqillikning ilk davrlaridayoq mamlakatimizda mustahkam bank infratuzilmasi shakllandi. Tobora taraqqiy etib borayotgan bank tizimi mamlakatimizni har tomonlama taraqqiy ettirishda, xalq farovonligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli davom ettirishda o'zining salmoqli hissasini qo'shib boraveradi.

Mamlakatimizdabank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash iqtisodiyotni modemizatsiyalash sharoitida ob'ektiv zaruriyat bo'lib, bu o'z navbatida tijorat banklari faoliyatini doimiy nazorat qilishni va ularni samarali tashkil etish uchun bank tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarining daromadlilagini oshirish, ushbu operatsiyalami amalga oshirishda qilinayotgan sarf-xarajatlarni kamaytirishga shu asosda bank foydasini ko'paytirish yo'llarini topishni talab etadi. Hukumatimiz tomonidan bank tizimini rivojlantirish bo'yicha izchil ravishda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar sohani barqaror rivojlanishi ta'minlanmoqda.